

ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic sciences

**No7
2021**



**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

ISSN 2181-1784

VOLUME 1, ISSUE 7

Impact Factor: 5.423

August

2021

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL
AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 7 -2021**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences Associate professor of the department of
"Oriental philosophy and culture" of Tashkent State University of Oriental
Studies

EDITORIAL BOARD

Dr. PhD. N.B. KHODJAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State
University of Oriental Studies

Dr. Z.A. NUROVA

Candidate of Biological sciences
Associate professor of Termez branch
of the Tashkent Medical Academy

Dr. S.F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Associate professor of Tashkent State
University of Transport

Dr. A.H. KARSHIEV

Doctor of Philosophy (PhD) in
technical sciences
Associate professor of Tashkent State
Technical University

PhD. A.A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences
Associate professor of Tashkent State
University of Oriental Studies

PhD. M.KH. EGAMOV

Candidate of Pedagogical Sciences
Associate professor of Karshi
Engineering Economics Institute

Prof. G.M. RUZMATOVA

Doctor of Philosophical Sciences
Professor National University named
after Mirzo Ulugbek.

Prof. O. J. NISHANOVA

Doctor of Philosophical Sciences
Professor of National University named
after Mirzo Ulugbek.

Prof. MUHIBOVA ULFATKHON

Doctor of Philological Sciences
Professor of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. S.A. KHASHIMOVA

Doctor of Philosophy (DSc)
in Philological Sciences
Professor of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. S. S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State
University of Oriental Studies

Prof. T. M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Associate professor of Uzbek Language
and Literature named after Alisher Navoi

Dr. PhD. A.E. RUZIEV

Doctor of Philosophy (PhD) in
Psychological Sciences
Deputy Dean of the Faculty of Energy
of Karshi Institute of Engineering and
Economics

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of
Languages and History-Geography,
Department of Eastern Languages and
Literatures, Sub-Department of
Indology, Faculty Member.

Dr. A.KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences
Associate professor of Tashkent State
University of Oriental Studies

Dr. U.A. ABDULLAEV

Candidate of Historical Sciences
Associate professor of Tashkent State
University of Oriental Studies

Mr. CHRISTIAN BARTOLF

Doctor of Philosophy (PhD)
In Political Sciences

Prof. N.B. ABDULLAEVA

Doctor of Philosophical Sciences
Professor of the department of
Philosophy and Fundamentals of
Spirituality of National University named
after Mirzo Ulugbek.

PhD. E.N. CHERNIKOVA

Candidate of Pedagogical Sciences
Associate professor of Uzbek State
University of Physical Culture and
Sports.

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal
University, Linguist.

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and
Communication, Zhejiang University of
Finance and Economics.

Dr. N.S. HAMRAEVA

Doctor of Economics, Associate
Professor of Karshi Institute of
Engineering and Economics

Буранова Ж.А. // <i>Мифологизм в прозе Аман Мухтара (на примере романа «Человек перед зеркалом»)</i>	269
Юлдашева Т.А. // <i>Русский язык в современном мире: традиции и инновации в преподавании русского языка в национальных группах</i>	274
Eldorbekov G'.I. // <i>Yangi O'zbekiston – yangi qo'shnichilik</i>	280
Yesimbetova B.Y. // <i>Qasddan badanga shikast yetkazish jinoyatlarni tergov qilishda ilgari surilgan versiyalarni tekshirishning ayrim masalalari</i>	291
Ismailov S.A. // <i>Yangi O'zbekiston ilm-fan taraqqiyoti yo'lida kimyo sohasiga berilayotgan e'tibor</i>	296
Xojjiyeva M.Y. // <i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari va assesment metodi</i>	302
Mutallibjonov M. // <i>Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish yuzasidan xorijiy tajribalar tadqiqi va uning kontekstual jihatlari</i>	308
Mustafayev U.U. // <i>Oliy ta'lim: savodsizlikning ildizi qayerda?</i>	313
Ikmonova Y.A. // <i>Qadrini yo'qotayotgan qadriyatlar!</i>	318
Nazarova A.R. // <i>Afg'onistonda "She're nav" va uning Boriq Shefeiy ijodidagi o'rni</i>	324
Eshnazarova X.M. // <i>Zahiriddin Muhammad Boburning tarixda tutgan o'rni</i> ...	332
Джурраев Ш., Муртозаев Ш. // <i>Педагогическое планирование и средства учебного процесса в философии</i>	335
Халимова Д.Дж. // <i>Некоторые вопросы развития биологических технологий</i>	342
Avezov H.I. // <i>Features of innovative product development by science-intensive businesses in the present economic conditions</i>	349
Nurmatova D.G. // <i>Autizm sindromli bolalar ijtimoiylashuvida psixokorreksion vazifalar</i>	357
Rasulov O.A. // <i>Pandemiya sharoitida Jazoimning ijtimoiy-siyosiy islohotlarning istiqbollari va ularning iqtisodiy omillar bilan aloqasi</i>	364
Pardayeva M.D. // <i>Yangi O'zbekiston: ajdodlarimizning boy merosi va qo'shnichilik munosabatlari</i>	371
Xolmurodov N.Q. // <i>O'zbekistonda kambag'allikni bartaraf qilishning o'ziga xos xususiyatlari</i>	379
Юлдашева Т. // <i>Современные инновационные технологии в образовании и их применение</i>	386

KIRISH

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam.U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtayi nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbayiga aylanishi mumkin⁷⁸.

Til va shaxs munosabatlari haqida R. Jeykobson shunday yozgan edi. "Muayyan tilning aniq va aniq ilmiy tavsifi suhbatdoshlar orasida ularning ijtimoiy mavqeyi, jinsi yoki yoshi jihatidan tafovutlar mavjudligi yoki yo'qligi haqidagi grammatik va leksik qoidalarsiz ish tutib bo'lmaydi; Tilning umumiy tavsifida bunday qoidalarning o'rnini aniqlash murakkab tilshunoslik muammosidir".

Darhaqiqat, tilshunoslikda shaxs tushunchasi antropolingvistik paradigmaning asosiy ilmiy istilohi bo'lguniga qadar semantik, morfologik, sintaktik jihatlaridan tahlil qilinganligi ma'lum. Chunonchi, shaxsni nomlovchi leksemalar "Shaxs tavsifi nomlari" ostida ot mikrotizimida alohida lug'aviy ma'no to'dasini tashkil etishi substansial tahlil asosida aniqlangan. O'zbek substansial morfologiyasi mazkur lug'aviy ma'no to'dasi lug'aviy-ma'naviy guruhlariga bo'linishini va bunda semantik farqlovchi belgilarga tayanilganligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxsni tavsiflovchi lug'aviy-ma'naviy guruhlar ichida shaxsni jinsi, millati, qarindoshlik, yaqinlik munosabati, ijtimoiy mavqeyiga ko'ra tasniflash fanimizda shaxs otlarini leksik mikrotizim sifatida o'rganish natijasidir. Ammo nutq jarayonida shaxsni jinsi, kasbi, millati, yaqinlik munosabatiga ko'ra tavsiflovchi ot leksemalarning sintaktik munosabatdan hosil bo'luvchi so'z birikmalarining yuzaga chiqishi kuzatiladiki, bu shaxs kategoriyasi uning muayyan belgi-xususiyatlarini ifodalovchi sintaktik birliklarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari nazariyasini assessment metodi orqali amaliyotga tatbiq etishimiz Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida ta'limning davr talablariga mos bo'lishi uchun unda "o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdanda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish" tamoyilining amaliy tatbig'idir.

⁷⁸<https://uz.wikipedia.org/wiki/Shaxs>.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o'quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda. Ayni shu o'rinda ana shunday vositalardan biri bo'lgan, ta'lim samaradorligiga erishish maqsadida darsning barcha bosqichlarida qo'llanilish imkoniyatiga ega bo'lgan "Assesment" texnologiyasi to'g'risida to'xtalib o'tamiz.


Ko'p holatlarda bu texnologiya biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshiriq, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi.

So'nggi yillarda mazkur texnologiya ta'lim tizimiga ham samarali joriy etildi. Uning yordamida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasi

har tomonlama, xolis baholanmoqda. Ayni vaqtda respublika ta'lim muassasalarida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari kamida to'rtta topshiriq bo'yicha

baholanmoqda²⁹.

Quyida "Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari" mavzusini o'qitish uchun tuzilgan assessment namunasini taqdim etamiz.



1. "Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash" qaysi so'z turkumining UGMsi (umumiy grammatik ma'nosi)dir ?

A) *fe'l* B) *ot* C) *sifat* D) *son*

2. Quyidagi qaysi birikmalarda shaxs tavsifi nomlari hokim vaziyatda voqelashgan?

A) *Razzoq so'fi, Asror bobo*

C) *temirchi Jo'ra, usta Olim*

B) *Gulsum opa, mulla Abdurahmon*

D) *suvchi yigit, sotuvchi erkak*

3. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG va shaxsni jinsiga ko'ra orasidagi LMG orasida sintaktik munosabatni hosil qiluvchi ot leksemalari quyidagi qaysi so'z birikmalarini yuzaga chiqargan?

A) *qo'shni duradgor, mahalladosh tikuvchi*

²⁹Муслимов Н., Усмонбенова У., ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. –Тошкент: 2015. –Б.60

B) *tatar muallim, arman savdogar*

C) *o'qituvchi ayol, naqqosh erkak*

D) *tilshunos olim, aravasozi usta*

4. Kasb nomlari shaxsni millatiga ko'ra tavsiflovchi LMG a'zolari bilan birikkan so'z birikmalarini aniqlang.

A) *arman savdogar, yahudiy sartarosh*

B) *qo'shni duradgor, mahalladosh tikuvchi*

C) *qo'shni ayol, suvchi yigit*

D) *Asror bobo, Miroqil paxtafurush*

5. Tergovchi Mirzo Muhiddin so'z birikmasi qaysi qurilish qolipi hosilasi hisoblanadi?

A) $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$

B) $[O_A \sim O_{sh}] = SB$

C) $[O_{sh} \sim O_A] = SB$

D) $[S \sim O_A] = SB$

Simptom

1. Lison-nutq qarama-qarshiligida tadqiq etilishicha ma'naviy (semantik) tasnif tamoyiliga ko'ra leksemalar qanday turkumlarga ajratildi?

2. Tobe va hokim a'zolari shaxs otlaridan tashkil topgan so'z birikmalarini o'rganish asosida formal-grammatik talqinda qanday xulosalarga kelindi?

3. "Shaxs tavsifi nomlari" LMTsi butunlik sifatida qanday bo'laklar, ya'ni LMGlardan tashkil topadi?

4. Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining qurilish qoliplariga nimalar kiradi?

5. O'zbek tilshunosligida til birliklari, jumladan, SBlarining substansial tadqiqi natijalarini nutq lingvistikasi nuqtayi nazaridan baholash, lisoniy sintaktik imkoniyatlarni tildan foydalanuvchi nutqiy faoliyatida voqelanishini til, shaxs va jamiyat munosabatlari negizida sotsial va pragmatik jihatdan tahlil qilish ilmiy ehtiyoji nimalarda o'z aksini topadi?

Qiyosiy tahlil

1. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG va shaxsni jinsiga ko'ra orasidagi LMG orasida sintaktik munosabatni hosil qiluvchi ot leksemalaridan hosil bo'lgan *Oshpaz ayol, shifokor erkak, o'qituvchi ayol, naqqosh erkak, quruvchi ayol, chiptachi erkak* so'z birikmalari va *oshpaz, shifokor, o'qituvchi, naqqosh, quruvchi, chiptachi* leksemalarini qiyoslab tahlil qiling.

2. "Shaxs tavsifi nomlari" LMTsi hamda "shaxs tavsifi nomlari" LMGsi turlarini o'zaro qiyoslang.

3. Sezgi a'zolari bilan sezish mumkin bo'lgan predmetlarni atovchi leksik birliklar muayyan otlar hisoblansa, muayyan otlar birikuvidan hosil bo'lgan birliklarni o'zaro shu ot leksemalari bilan qiyoslang.

4. Nutqiy birlik sanalgan so'z birikmasi va shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining o'ziga xos xususyatlarini tavsiflang.

5. Til va jamiyat, til va mafkura, til va tafakkur, til va xalq, til va yosh, til va jins, davlat institutlarida til, til taraqqiyotini rejalashtirish kabi tushunchalarni o'zaro qiyoslang.

Amaliy ko'nikma

1. Tobe va hokim a'zolari shaxs otlaridan tashkil topgan so'z birikmalariga misollar keltiring.

2. O'zbek tilida tobe va hokim a'zolari shaxs otlaridan tashkil topgan so'z birikmalari umumiy sintaktik qolipini yozing.

3. *Suvchi yigit, sotuvchi erkak, oshpaz qiz, tilshunos olim, aravasoz usta, tatar kampir, qozoq chol, lo'li qiz, sirdosh dugona, mahalladosh tikuvchi, hamkasb usta, qo'shni maxsido'z* kabi so'z birikmalarining lisoniy qurilish qoliplarini belgilang.

4. [Shaxsni kasb jihatidan tavsiflovchi ot + shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi ot] – [O_x – O_{yo}]; nutqiy hosilalariga misollar keltiring.

5. Birikish usuli tobe bo'lak mavqeyida shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi ot leksemalari voqelashganligi hamda hokim bo'lak mavqeyini shaxsni yoshiga ko'ra tavsiflovchi ot leksemalari egallaganligini bildiradigan so'z birikmalarining nutqiy voqelanishini misollar bilan izohlab, lisoniy-sintaktik qolipini belgilang.

XULOSA

Ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari talaba shaxsining ichki inkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib, ularning dars jarayonida o'quv faoliyatining subyekt sifatida o'zliklarini takomillashtirish va namoyon eta olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini ta'limda to'g'ri va o'rinli joriy eta olish dars samaradorligini oshiradi, talabalarning intellektual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Tabiiyki, bu o'qituvchidan samarali usullarini qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lmoqlikni talab etadi.

REFERENCES

1. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Номсодл. диссер. ...автореф.–Т., 1997. - 21 б.

2. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993. - 32 б.
3. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Т.: Fan va texnologiya, 2010. –414 б.
5. Nazarova S.A., Xojiyeva M.Y. Substantial Description of Uzbek Word Combinations . // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. United Kingdom. – Scopus journal. –ISSN: 1475-7192, Volume-24, Issue-1, January 2020.– P.422-429. <https://www.psychosocial.com/article-category/issue-1-volume-24>.
6. Xojiyeva M.Y. Shaxsni tavislovchi so'z birikmalarida genderga mansublik ifodasi // "Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muammolar va yechimlar" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari. Andijon 2020y.
7. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). LANGUAGE AND SPEECH EXPRESSION OF PERSONAL DESCRIPTIONS. *TJE-Tematics journal of Education* ISSN, 2249-9822.
8. Муслимов Н., Усмонбекова У. ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. –Тошкент: 2015. –Б.60.
9. G'afur G'ulom. Shum bola. –Т.:Yoshlar nashriyot uyi, 2019. –190 б.

SHAXSNI TAVSIFLOVCHI SO'Z BIRIKMALARI VA ASSESMENT METODI

Xo'jayeva Maxfirat Yusupovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

xo'jayevamaxfirat8@gmail.com

ANNOTATSIYA

O'zbek tilida so'z birikmalari ma'noviy tiplari sirasida shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari mavjudligini, o'ziga xos xususiyatlarini muayyan ko'rinishlari to'plangan materiallar asosida o'rganilganligi, shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari nutqda voqelashtiruvchi lisoniy qurilish qoliplari asosida tavsiflash hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarining talaba shaxsining ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratib, ularning dars jarayonida o'quv faoliyatining subyekt sifatida o'zliklarini takomillashtirish va namoyon etishlarida muhim ahamiyat kasb etishi, innovatsion texnologiya muayyan fan asoslarini singdirishni jadallashtirishda, talabalarning o'zlashtirish darajasini doimiy nazorat qilishda, baholashda, ularni fanni chuqur o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'otish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishda va o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni samarali o'zlashtirishidagi muhim qarashlar maqolada aks ettirilgan.

Kalit so'zlar. Til, nutq, so'z, nutqiy hosila, so'z birikmasi, assesment metodi, shaxs, jins, kasb, millat.

ABSTRACT

Among the spiritual types of word combinations in the Uzbek language there are word combinations that characterize a person, specific features of which are studied on the basis of collected materials, characterization of word combinations that characterize a person on the basis of linguistic construction patterns that make it realizable in speech, demonstration of the internal capabilities of the student in innovative, their important role in improving and demonstrating themselves as a component of educational activities in the course of the lesson, innovative technology plays an important role in accelerating the integration of certain fundamentals of Science, in the constant control, evaluation of the level of students' mastering, in teaching them practical activities on the basis of enthusiasm for deep mastering of Science.

Keywords: language, speech, word, colloquial derivative, word combination, method of assessment, person, sex, profession, nationality.